

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**GULYAYEVA GULFIYA XARISOVNA**

**SHAKL SAQLASH XUSUSIYATLARI YUQORI BO‘LGAN TRIKOTAJ  
OLISH TEXNOLOGIYASI ASOSLARI**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации**  
**Contents of the Abstract of Doctoral Dissertation**

<b>Gulyayeva Gulfiya Xarisovna</b> Shakl saqlash xususiyatlari yuqori bo‘lgan trikotaj olish texnologiyasi asoslari.....	3
<b>Гуляева Гульфия Харисовна</b> Основы технологии получения формоустойчивого трикотажа.....	29
<b>Gulyaeva Gulfiya Kharisovna</b> Fundamentals of the form-stable knitwear producing technology.....	57
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works.....</b>	60

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**GULYAYEVA GULFIYA XARISOVNA**

**SHAKL SAQLASH XUSUSIYATLARI YUQORI BO‘LGAN TRIKOTAJ  
OLISH TEXNOLOGIYASI ASOSLARI**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/T633 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Mukimov Mirabzal Mirayubovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Matismailov Saypila Lalashbayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Valiev Gulam Nabidjonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Bitus Yevgeniy Ivanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «03» iyul soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon-5, tel.:(+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17.e-mail:titlp\_info@edu.uz, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (243-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Shohjahon-5, tel.:(+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «18» iyun kuni tarqatildi.  
(2025 yil «18» iyundagi 243-raqamli reestr bayonnomasi).



**X.H. Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash raisi, t.f.d., professor



**A.Z. Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh. Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati.** 2024 yilda jahon to‘qimachilik bozori qiymati 748 milliard AQSh dollari deb baholanmoqda, va 2029 yilga borib uning hajmi 889,24 milliard AQSh dollariga yetishi bashorat qilinmoqda, ushbu davrda (2024-2029 yillar) o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 3,52% ni tashkil etadi. To‘qimachilik sanoati dinamik rivojlanayotgan soha bo‘lib, uning asosiy raqobatchilari Xitoy, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Hindistondir. Faol sanoatlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish korxonalarini modernizatsiyasiga asos bo‘ladi, bu esa yuqori samarali mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi<sup>1</sup>. Bu borada, trikotaj to‘qimasini tuzilishini takomillashtirish va tabiiy hamda sintetik xomashyolardan samarali foydalanish orqali shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Jahonda xomashyo sarfini kamaytirish, trikotaj matolar assortimentini kengaytirish, trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, xususiyatlar va texnologik jarayonlarni bashorat etish modellarini ishlab chiqish, shuningdek, olingan natijalarni ishlab chiqarishga integrasiya qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ustki trikotaj mahsulotlari uchun mo‘ljallangan trikotajni shakl saqlash xususiyatini oshirishning hamda bashorat etishning yangi samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, trikotaj deformatsiyalanishni tahlil qilish asosida shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqishning nazariy va texnologik asoslarni yaratish masalalari dolzarb hisoblanmoqda.

Respublikamizda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va to‘qimachilik mahsulotlarining jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada trikotaj mahsulotlarini yuqori texnologik usullarda ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilgan. Bu esa sanoatning salohiyatga egaligini va xalqaro standartlarga javob beradigan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun samarali texnologiyalarni ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining ushbu tarmog‘ida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: «... respublikaning eksport salohiyatini yanada oshirish va 2026 yilga kelib respublikaning eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish<sup>2</sup>. Tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar ulushini eksport tuzilmasida 3,3 barobar oshirish, GSP + va boshqa tizmlar doirasida Yevropa mamlakatlariga tayyor mahsulot eksportini kengaytirish», «... to‘qimachilik sanoatida ipni qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish, yuqori sifatli matolar talabini qondirish uchun 400 ming tonna sun‘iy va aralash tolalarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish...»<sup>3</sup>. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda import o‘rnini bosuvchi va

<sup>1</sup> <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/global-textile-industry---growth-trends-and-forecast-2019---2024>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

eksportga yo‘naltirilgan sifat va raqobatbardoshlik talablariga javob beradigan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, rikotaждан foydalanish davrida halqa tuzilishi muvozanat holati nazariyasiga asoslangan holda sifat ko‘rsatkichlari yaxshilangan trikotaj matolarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O‘zbekiston-2030 strategiyasi" to‘g‘risidagi, 2023 yil 2 sentyabrdagi PF-155-son "To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi, 2024 yil 1 maydagi PF-71-son "To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya-resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobo‘zlik” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>4</sup>. Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari, jumladan, Mordor Intelligence Xalqaro analitik markazi, Textiles and Clothing Research Centre (Hindiston), Massachusetts Institute of Technology (MIT) (AQSH), Technical University of Munich (TUM) (Germaniya), Ghent University (Belgiya), University of Manchester (Buyuk Britaniya), Almata To‘qimachilik va Yengil sanoat ilmiy-tadqiqot instituti (Qozog‘iston), RUP «Yengil sanoati ilmiy tadqiqotlar markazi» (Belarus), «To‘qimachilik va yengil sanoati Innovasion ilmiy-ishlab chiqarish markazi» OAJ (Rossiya), Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti (O‘zbekiston) tomonidan trikotaj ishlab chiqarish sohasiga oid texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Jahonning ilmiy markazlarida olib borilgan texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va trikotaj mahsulotlarining sifatini yaxshilashga qaratilgan quyidagi natijalar olindi: tabiiy va aralash xomashyolardan foydalanib yangi tuzilishli trikotajni olishning samarali usullari ishlab chiqilgan (Textiles and Clothing Research Centre, Hindiston); texnik va kompression trikotaj mahsulotlarini olish, badiiy bezash va konstruktsiyasining yangi texnologiyalari ishlab chiqilgan (Sankt-Peterburg davlat texnologiya va dizayn universiteti, Rossiya), trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish yangi texnologiyalari ishlab chiqilgan va jarayonlari avtomatlashtirilgan (Hochschule Albstadt universiteti, Germaniya), ustki va ichki mahsulotlar uchun yuqori elastikli trikotaj matolarini olishning yangi texnologiyalar yaratilgan (Moskva davlat to‘qimachilik universiteti, Rossiya), ikki qatlamli, tukli, aralash tuzilishli, paxta-ipakli

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: [www.icac.org](http://www.icac.org), <https://www.mit.edu/>; <http://www.cotton.org>; <https://www.tum.de/en/>; [www.indiantextilejournal.com](http://www.indiantextilejournal.com); Journal of Textile Science & Engineering. <https://atu.edu.kz/science/research-institutes/light-industry>; <https://inpctlp.ru/>; <https://www.ugent.be/en> va бошқа манбаалар асосида ишлаб чиқилган

va maxsus trikotaj matolarini olish usullari va texnologik reglamentlar ishlab chiqilgan (Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda olib borilayotgan trikotajning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar, shuningdek, trikotajning yangi tuzilishlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha izlanishlar istiqbolli hisoblanadi, va ular natijada ishlab chiqarish xarajatlarini oshirmay mahsulot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish trikotaj to‘qimalar va mahsulotlarning tuzilishlari, gigienik va deformatsion xususiyatlarini o‘rganish masalalari chet el olimlar, jumladan V. Kumar, V.R. Sampath, N. Emirhanova, Y. Kavusturan, E. Onofrei, S.A.Frydrych, H.R. Mattila, D. Farama, Bartkowiak Grazyna, Szucht Edwart, C. Candan, A. Mukhopadhyay va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bu fan sohasida A.S. Dalidovich, I.I. Shalov, L.A. Kudryavin, V.M. Lazarenko, V.A. Zinovyeva, L.P. Rovinskaya, I.G. Sitovich, A.V. Truyevsev, M.M. Mukimov, N.R. Xanxadjaeva, K.M. Xolikov, B.F. Mirusmanov, K.Z. Yunusov, A.E. Isabayev, Sh. Muxamedjanov va boshqa olimlarning shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarni olish, trikotaj mahsulotlar assortimentini kengaytirish, shuningdek, trikotajning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xossalarini tadqiq qilishga bog‘ishlangan fundamental ishlari ma’lumdir.

Gigiyenik xususiyatlari yuqori bo‘lgan trikotaj mahsulotlarini yaratish, trikotaj to‘qimalari va mahsulotlarning deformatsion xossalarini tadqiq etish masalalari prof. X.A. Alimova, F.U. Nigmatova, S.SH. Tashpulatov, V.S. Ribina, D.U. Aripjanova, A.P. Rogova, A.I. Tabakova kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Xususiyatlari yaxshilangan trikotaj to‘qimalarni ishlab chiqarish usullariga bog‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlili shuni ko‘rsatdiki, tabiiy va kimyoviy iplardan shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini olishning nazariy va texnologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan va quyidagi ilmiy-tadqiqot loyihalarida aks etgan: 26/2019-son shartnoma asosida bajarilgan «Klasterning trikotaj mahsulotlari uchun uchun yangi to‘qimalarni ishlab chiqish» (2019 yil), 12/2021-son shartnoma asosida bajarilgan “Ustki mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqish” (2021yil), 5/2022 sonli «BUXARA MEGA GLOBAL TEKS» MChJ to‘qimachilik kompleksi uchun trikotaj jihozlar parkini tahlil qilish, tanlash va asoslash» (2022 yil).

**Tadqiqotning maqsadi** trikotaj elementlari deformatsiyalanishni tahlil qilish asosida shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqishning nazariy va texnologik asoslarni yaratishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

halqali tuzilish parametrlari deformatsiyalanishi tahlili asosida trikotajning ekspluatatsion yuklanishdagi barqarorlik modeli kontsepsiyasini ishlab chiqish;

trikotaj tuzilishining deformatsiyalangan holatida halqaning pishiqligi va transformatsiyasini modellashtirish;

paxta iplaridan ishlab chiqarilgan trikotaj matolarini elastikligini oshirish va shakl saqlash xususiyatini deformatsiyalanish tahlilining model usulida baholash asosida ilmiy asoslarni yaratish;

trikotaj tuzilishiga cho'ziluvchanligi kam bo'lgan elementlarni kiritish hisobiga aralash trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish;

qatlamlarning tuzilishini, shuningdek birlashtiruvchi va arqoqli iplarni qo'yish usullarini takomillashtirish asosida shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilish va olish usullarini ishlab chiqish;

trikotaj tuzilishiga qo'shimcha iplarni kiritish orqali trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirishning texnologik usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ektiga** trikotajning shakl saqlash xususiyatlarini oshirish jarayonlari va usullaridir, jumladan ekspluatatsiya davomida halqalarning deformatsiyasi va transformatsiyasini tahlil qilish.

**Tadqiqotning predmetini** yangi tuzilishdagi shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan aralash, ikki qatlamli, futerli va arqoqli trikotaj to'qimalarini olish usullari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot ishida nazariy, eksperimental, kompleks baholash, iplar mexanikasi, matematik statistika usullari, hisob ishlarida Maple, Math Cad, Excel, chizma va grafik ishlarida Auto Cad, Corel Draw dasturlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bora trikotaj nazariyasida halqa ipi uzunligi koeffitsienti  $k_l$  orqali ipning plastik deformatsiyasini inobatga oluvchi va trikotaj tuzilishini uzoq davr muvozanat holatda qolishiga ta'sir etadigan halqa ipning texnologik uzunligi  $l_T$  ko'rsatgichi va uni aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

trikotaj tuzilishining holatlar uchburchagini tahlil qilish asosida, qaytmas deformatsiyasini aks etadigan halqa ko'rsatkichlaridan kelib chiqib matoning shakl saqlash koeffitsiyentini aniqlash formulasi ishlab chiqilgan;

trikotajning deformatsiyalanishni tahlili asosida paxta ipidan ishlab chiqarilgan trikotaj matolarini elastikligini oshirish va shakl saqlash xususiyatini baholash ilmiy asoslari yaratilgan;

lastik va interlok to'qimalar tuzilishiga qo'shimcha elementlar kiritish asosida aralash trikotajni yangi turlarini yaratish hisobiga shakl saqlash xususiyatini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

trikotaj qatlamlar tuzilishini, shuningdek birlashtiruvchi va arqoqli iplarini qo'yish usulini takomillashtirish asosida shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan ikki qatlamli to'qimalarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

qo'shimcha ipni qo'yish yangi usullarini yaratish hisobiga shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan arqoqli, futerli va arqoqli-futerli trikotajni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan aralash trikotajni yangi tuzilishlari va samarali olish usullari ishlab chiqilgan;

gigienik xususiyatlari yaxshilangan va shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan elastifikasiyalangan tukli trikotajning tuzilishlari va olish usullari ishlab chiqilgan;

trikotaj tuzilishi va laykra ipi miqdori to'qimaning shakl saqlash xususiyatiga ta'sir etish qonuniyatlari aniqlangan;

tuzilishida qo'shimcha ip mustahkam mahkamlangan bir, ikki qavatli, ikki qatlamli va arqoqli trikotaj to'qimalarini olish usullari ishlab chiqilgan;

shakl saqlash yuqori bo'lgan aralash, ikki qatlamli va tukli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda xomashyo sarfini kamaytirishning texnologik yechimlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyadagi ilmiy prinsiplar, xulosalar va tavsiyalar, shuningdek ularning uyg'unligi; nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari; aprotasiya va tadbiiq etishda olingan ijobiy natijalar; natijalarning belgilangan baholash me'zonlariga muvofiqligi va mavjud fan sohasidagi tadqiqotlar bilan solishtirilishi orqali ularning adekvatligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ilk bora trikotaj nazariyasida halqa ipning texnologik uzunligi (HITU) tushunchasi kiritilgan. Bu ko'rsatkich, halqa ipi uzunligi koeffisienti  $k_l$  orqali ipning plastik deformatsiyasini inobatga olgan holda trikotaj tuzilishini uzoq davr barqaror qolishiga olib keladi. Shuningdek, trikotaj tuzilishining chegaraviy holatida halqa qadami  $\psi_{III}$  va halqa ustunchasi bo'yicha  $\psi_c$  transformasiya koeffisienti orqali baholash taklif etilgan. Shakl saqlash xususiyatini maxsus koeffisient orqali baholash formulasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ustki mahsulotlar uchun mo'ljallangan shakl saqlash xususiyati 94 % dan oshgan aralash, ikki qatlamli va arqoqli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilishlari va olish usullari taklif etilgan. Tukli trikotajni ishlab chiqarishda tarkibidagi laykra ipini ratsional miqdorlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shakl saqlash xususiyati va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotajning yangi tuzilishlarini olish yuqoritexnologik usullarini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

arqoqli, futerli va arqoqli-futerli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilishlari va olish usullariga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan ixtiroga 5 ta patent olingan («Arqoqli trikotaj olish usuli» №IAP 06001-2019y., №IAP 06397-2021y.; «Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan ko'ndalang to'qilgan trikotajni olish usuli», №IAP 06303-2020y.; «Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni olish usuli», №IAP 06330-2020y.; «Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan futer trikotaj to'qimasini olish usuli», №IAP 06461-2021g.). Natijada shlab chiqilgan shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni olish usullari hisobiga tuzilishga kiritilgan qo'shimcha ipni

mahkamlanganlik darajasi oshgan, matoning uning qaytar deformatsiyasini 32% ga, issiqlik saqlash xususiyatini 70% ga oshirishga erishilgan;

yangi shakl va issiqlik saqlash xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotajni olish texnologiyasi «Sedat Triko Tashkent» QK MChJ, «Textile Mill Tashkent» QK MChJ, «Degrez teks LTD» MChJ, «Porloq Chust Brendi» MChJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan ((“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotnomasi 03/25-3285, 06.12.2024y.). Natijada shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotaj to‘qimasining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, xomashyo sarfini 20% gacha kamaytirishga erishilgan va mahalliy korxonalarda ichki va tashqi bozorga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 42 ta ilmiy- texnik konferensiyalarda, shu jumladan 26 ta xalqaro, 16 ta Respublika ilmiy konferensiyalarida va ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 70 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 21 ta ilmiy maqola, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta maqola Scopus bazasidagi jurnallarda nashr etilgan, 5 ta ixtiroga patent olingan, 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni ishlab chiqarish usullarini tahliliy sharhi**» deb nomlangan birinchi bobi to‘qimachilik sanoatining bugungi holati, mahalliy xomashyoni qayta ishlab, raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, assortimentni kengaytirish, shuningdek, qo‘shimcha iplardan foydalanish, tuzilish va xomashyo tarkibini o‘zgartirish hisobiga trikotaj shakl saqlash xususiyatini oshirish usullarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.


Trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish usullarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda trikotaj to‘qimalar elementlarini aralashtirish, trikotaj tuzilishiga qo‘shimcha iplar qo‘shish va kimyoviy xomashyo turlaridan foydalanish usullari qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, trikotaj tuzilishini o‘zgartirish uning ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yangi trikotaj tuzilishlarini ishlab chiqish mahsulot uchun eng

muhim bo‘lgan xususiyatlarni bashorat qilish va talab qilingan sifat ko‘rsatkichlarini shakllantirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan usullarni joriy etish murakkabligi tufayli amaliyotda keng qo‘llanilmaydi.

Tadqiqot natijalari asosida shakl saqlash xususiyatini oshirishning yangi usullarni ishlab chiqishda trikotajning deformatsiyalanishi, shuningdek trikotaj tuzilishi elementlari va parametrlar transformasiyasi tahlili asosida ilmiy asoslanishi lozimligi aniqlandi.

Ikkinchi «Ekspluatasion yuklanishda trikotaj tuzilishi barqarorlik modelining geometrik konsepsiyasi» deb nomlangan bobi halqa ko‘rsatkichlar uchburchagi bazasida trikotaj tuzilishining barqarorlik nazariy asoslarini ishlab chiqishga, mahkamlik mustahkamligini modellashtirishga va trikotaj tuzilishining cho‘zilish jarayonidagi chegaraviy holatidagi halqa transformasiyasini (shakl o‘zgartirish) tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Trikotajning deformatsiyalanishini kompleks tahlil qilish asosida, halqa strukturasi elementlari va parametrlarining transformasiyasini hisobga olgan holda uning deformatsiyalanishining asosiy sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm). Halqa ipi deformatsiyasini batafsil tadqiq etish tayyor mahsulotning deformatsiyalanishini umumiy baholashga imkon yaratadi, bu esa trikotaj matosida halqa muhim element ekanligidan dalolat beradi.



1-rasm. Trikotajning deformatsiyalanish bazaviy sxemasi


Shu bilan birga, halqaning uzunligini geometrik va empirik modellar orqali, hamda halqa modullari  $M$  orqali quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$l = 0,0357 \sqrt{\frac{T}{\gamma}} M, \text{ mm} \quad (1)$$

$T$  – ipning qalinligi (chiziqli zichligi), teks;  $\gamma$  – ip tashkil topgan tola hajmiy zichligi,  $\text{mg/mm}^3$ ,  $M$ –halqa moduli.

Trikotajning qayishqok-elastik xususiyatlarini bilish asosida, halqadagi ipning uzunligini boshqarish orqali halqaning barqaror shaklini yaratish mumkin. Bu, o‘z navbatida, shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan trikotaj matosini shakllantirish uchun asos yaratadi. Har bir trikotaj to‘qimasi uchun halqa qatori balandligi  $B$  va halqa

qadami Aning chegaraviy (maksimal) qiymatlari mavjud (2-rasm), ular to‘qimaning bo‘yiga va eniga cho‘zilishini aniqlaydi.



2-rasm. Glad trikotaj to‘qimasining bo‘yi (a) va eni (b) bo‘yicha cho‘zilganda ko‘rinishi

Ishda trikotajning muvozanat holatiga mos keluvchi halqa parametrlari ( $A_0$ ;  $B_0$ ) ga nisbatan halqa qadami  $A_\varepsilon$  va halqa qatori balandligi  $B_\varepsilon$  o‘lchamlarining chegaraviy nisbiy o‘zgarishlari baholangan.

$$B_\varepsilon = \frac{B_{max} - B_0}{B_0} = \frac{B_{max}}{B_0} - 1; \quad A_\varepsilon = \frac{A_{max} - A_0}{A_0} = \frac{A_{max}}{A_0} - 1 \quad (2)$$

Trikotaj halqasi faqat geometrik tasvir ekanligini inobatga olgan holda,  $A_\varepsilon$  va  $B_\varepsilon$  qiymatlarini halqaning deformatsiyasi sifatida talqin qilish mumkin emas. Bunga sabab deformatsiya tushunchasi jism (yoki uning bir qismi) shakli yoki o‘lchamlarining tashqi kuchlar, isiqlik, namlik va boshqa ta’sirlar natijasida o‘zgarishini anglatadi. Kiritilgan  $A_\varepsilon$  va  $B_\varepsilon$  tushunchalarni hisobga olgan holda, halqa ipning uzunligi uchun A.S. Dalidovichning ma’lum qonunlarini aniqlovchi ifodalar olingan:

$$l = 2B_0(B_\varepsilon + 1) + 3\pi f; \quad l = A_0(A_\varepsilon + 1) + 3\pi f \quad (3)$$

Muvozanat holatidagi glad trikotaj to‘qimasining  $A_0$  va  $B_0$  parametrlari uchun I.I. Shalovning empirik formulalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

$$A_0 = 0,2l + \frac{0,7}{\sqrt{1000/T}}; \quad B_0 = 0,27l - \frac{1,5}{\sqrt{1000/T}}, \quad (4)$$

Shunda, (8)-bog‘lanishlarning (9)-nisbatini hisobga olgan holda, o‘zgarishlardan so‘ng halqa ipi uzunligini hisoblash uchun formula ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$l = \frac{-\frac{3}{\sqrt{1000}}(B_\varepsilon+1)+3\pi f}{1-0,54(B_\varepsilon+1)}; \quad l = \frac{\frac{0,7}{\sqrt{1000}}(A_\varepsilon+1)+3\pi f}{1-0,2(A_\varepsilon+1)} \quad (5)$$

(5)-formulalarda trikotaj nazariyasiga muvofiq ravishda kuchli deformatsiyalangan (qisilgan) holatda hosil bo‘luvchi ipning minimal qalinligi  $f$  shartli diametriga  $d_y$  ( $f \approx d_y$ ) tenglashtiramiz, chunki ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra ularning qiymatlari amalda bir-biriga mos keladi.

Trikotaj ishlab chiqarish nazariyasi va amaliyotida ilk bor halqa ipning texnologik uzunligi (HITU) tushunchasi taklif qilingan bo‘lib, turli trikotaj to‘qima

namunalarning bir davrli xususiyatlarini cho‘zish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarga asoslangan.

Halqa ipi uzunligi koeffisienti  $k_l$  hisobga olgan holda, HITUni aniqlash uchun formulalar quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi:

$$l_T = \frac{\sqrt{\frac{3}{1000} \frac{(B_\varepsilon + 1) + 3\pi f}{T}}}{1 - 0,54(B_\varepsilon + 1)} \left(1 - \frac{\varepsilon_{pl}}{n\varepsilon_p}\right), mm \quad l_T = \frac{\sqrt{\frac{0,7}{1000} \frac{(A_\varepsilon + 1) + 3\pi f}{T}}}{1 - 0,2(A_\varepsilon + 1)} \left(1 - \frac{\varepsilon_{pl}}{n\varepsilon_p}\right), mm \quad (6)$$

Bu yerda  $k_l = \left(1 - \frac{\varepsilon_{pl}}{n\varepsilon_p}\right)$  – halqa uzunligi koeffisienti

Shunday qilib, halqa ipning texnologik uzunligi  $l_T$  tushunchasi, asosan, trikotaj to‘qimasining plastik deformatsiyalariga ekvivalent bo‘lgan ipning plastik deformatsiyalar darajasini inobatga oluvchi hisoblash formulasi orqali aniqlangan uzunligini anglatadi.

Halqa ipining texnologik uzunligini hisoblash uchun algoritm ishlab chiqilgan:


1. Halqa ipi uzunligini aniqlash.
2. Glad trikotaj to‘qimasi muvozanat holatidagi parametrlarini aniqlash (4).
3. Halqa qadami  $A_\varepsilon$  va halqa qatorining balandligi  $B_\varepsilon$  o‘lchamlarining chegaraviy nisbiy o‘zgarishlarini hisoblash:

$$A_\varepsilon = \frac{l - 3\pi f}{A_0} - 1; \quad B_\varepsilon = \frac{l - 3\pi f}{2B_0} - 1 \quad (7)$$


4. Halqa uzunligi koeffisientini  $k_l$  trikotajni cho‘zishda bir davrli omillarni eksperimental tadqiqot etish asosida aniqlash.
5. Halqa ipning texnologik uzunligini  $l_T$ -ni (6)-formulalarga muvofiq aniqlash.

Yuqorida ishlab chiqilgan algoritmga muvofiq, chiziqli zichligi 20 teks x 3 bo‘lgan yigirilgan paxta ipidan ishlab chiqarilgan glad trikotaj to‘qimasi uchun halqa ipning texnologik uzunligi (HITU) hisoblandi.

3 va 4-rasmlarda halqa ipi uzunligini texnologik ko‘rsatkichlar kompleksini: halqa moduli, halqa qadami chegaraviy miqdorlari, halqa qatori balandligi, halqa ipi uzunligi koeffisienti, inobatga olgan holda hisoblash-eksperimental usulda aniqlangan taqqosiy baholash ko‘rsatilgan.



3-rasm. Glad va lastik trikotaj to‘qimalarida halqa ipi uzunligi  $l$  ning halqa moduli  $M$  bo‘yicha hisoblangan qiymati (1) hamda ekspluatasion kuchlanish va qaytmas (plastik) deformatsiyani hisobga olgan halqa ipi texnologik uzunligi  $l_T$  (2) bilan taqqoslanishi.



4-rasm. Glad va lastik trikotaj to‘qimalarida halqa ipi uzunligi  $l$  ning halqa chegaraviy nisbiy o‘lchamlari ( $A_\varepsilon$ ,  $B_\varepsilon$ ) bo‘yicha hisoblangan qiymati (1) hamda ekspluatasion kuchlanish va qaytmas (plastik) deformatsiyani hisobga olgan halqa ipi texnologik uzunligi  $l_T$  (2) bilan taqqoslanishi.



geometriya modelidan kelib chiqqan holda, ipning mexanik xususiyatlarini hisobga olmagan holda),  $A_1$  va  $B_1$  hisobiy qiymatlari uchun ifodalar quyidagi ko‘rinishga keltirilgan.

$$B_1 = \frac{2B_0(l-\pi f-2A_0)-A_0(l-\pi f-4B_0)}{2(4B_0-2A_0)}, \text{mm}; \quad (11) \quad A_1 = \frac{2B_0(l-\pi f-2A_0)-A_0(l-\pi f-4B_0)}{4B_0-2A_0}, \text{mm}; \quad (12)$$

Shunday qilib, halqa ko‘rsatkichlarining holatlar uchburchagidagi NC kesmani, to‘liq deformatsiyaning plastik qismini aniqlaydigan bo‘lib, quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$NC = \sqrt{(A_1 - A_0)^2 + (B_1 - B_0)^2} = k_G \quad (13)$$

bu erda  $k_{\Pi}$  – halqa ko‘rsatkichlarining qaytmas o‘zgarishlar koefitsienti.

Plastik deformatsiya halqa tuzilishining barqarorligini baholash uchun salbiy parametr bo‘lgani sababli, muvozanat holati ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda, maxsus shakl saqlash koefitsientini  $K_{\phi}$  kiritish maqsadga muvofiqdir.

$$K_{\phi} = \frac{1}{k_{\Pi}} = \frac{1}{\sqrt{(A_1 - A_0)^2 + (B_1 - B_0)^2}} \quad (14)$$

Chiziqli zichligi 20 teksx3 bo‘lgan paxta ipidan olingan glad trikotaj matosi uchun shakl saqlash xususiyati koefitsientini hisoblash algoritmi ishlab chiqildi va uning asosida hisobiy tajriba amalga oshirildi.

1. Ipning qalinligini (diametrini) aniqlash:  $d_{yc} = 0,0357 \cdot \sqrt{\frac{T}{\gamma}}$ , mm
2. Halqa ipining hisobiy uzunligi (1)
3. Glad trikotaj to‘qimasi halqaning muvozanat holatidagi parametrlari (4)
4. Halqa parametrlarini holatlar uchburchagi bo‘yicha, qaytmas (plastik) o‘zgarishlariga muvofiq, (11) va (12) hisoblash.
5. Trikotaj matosining shakl saqlash xususiyati koefitsientini aniqlash.

$$K_{\phi} = \frac{1}{\sqrt{(A_1 - A_0)^2 + (B_1 - B_0)^2}} \quad (14)$$

Shu tariqa, HITUni inobatga olgan holda halqaning shakl saqlash xususiyati koefitsienti, qaytmas deformatsiyaning inobatga olmagan holatiga nisbatan yuqori. Boshqa trikotaj to‘qimalari uchun bajarilgan hisoblar, mazkur qonuniyatlar saqlanishi va quyidagi ko‘rinishda tasvirlanishini ko‘rsatdi:

$$K_{\phi}=1,770 > 1,089 \text{ (glad)}; \quad K_{\phi}=3,215 > 1,776 \text{ (lastik)}; \quad K_{\phi}=2,174 > 1,476 \text{ (interlok)}.$$

Halqa tuzilishining chegaraviy holati, trikotaj halqasining maksimal transformasiyasini baholashni va mustahkamlik ishonchliligini talab qiladi, uning modellashtirilishi eng salbiy yuklanish omillarida bajarilgan bo‘lib, bitta yo‘nalishda cho‘zilishi sharoitlarida (halqaning geometrik parametrlari eng yuqori qiymatlarini -  $A_{\max}$  va  $B_{\max}$  da bo‘ladi).

Trikotaj ipining mustahkamlik ishonchliligini modellashtirish jarayonida, qabul qilinadigan uzilishdagi normal kesish kuchini  $[\sigma_p]$  deb qabul qilinadi, bu eksperimental usul bilan uzilish mashinalarida aniqlanadi.

$$\sigma_r = \varepsilon E \leq [\sigma_p], \quad (15)$$

Bu erda  $E$  – trikotaj ipini qayishqoqlik moduli, MPa;  
 $\varepsilon$  – uzilishdagi nisbiy cho‘zilishi.

Ifoda (15) ni qayta ishlashdan so'ng ipning uzilishdagi uzunligi uchun quyidagi nisbat olingan:

$$\sigma_p = \frac{l_p - l}{l} \cdot E = \left( \frac{l_p}{l} - 1 \right) \cdot E \leq [\sigma_p],$$

bundan

$$l_p = l \left( 1 + \frac{\sigma_p}{E} \right) = 0,0357 \sqrt{\frac{T}{\gamma}} \sigma \left( 1 + \frac{\sigma_p}{E} \right), \quad (16)$$

bu erda uzilishdagi kuchlanish  $\sigma_p$  amalda quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$\sigma_p = R_0 \gamma, \text{ MPa}, \quad (17)$$

bu erda  $\gamma$  – yigirilgan iplarining tarkibiy moddasining hajmiy zichligi, g/sm<sup>3</sup>;  $R_0$  – nisbiy uzilish kuchi, kN·m/kg, quyidagi bog'liqlik orqali ko'rib chiqilgan

$$P_0 = \frac{10^3 P_p}{\rho_s a_p}, \text{ kN} \cdot \text{m/kg} \quad (18)$$

bu erda  $P_p$  – uzilish kuchi, N;  $\rho_s$  – matoning yuza zichligi, g/m<sup>2</sup>;  $a_p$  – namunaning ishchi eni, mm.

Halqa qadami o'lchami  $A_\varepsilon$  va halqa qatori balandligining (ustunchalari) nisbiy chegaraviy o'zgarishlari  $B_\varepsilon$  halqa transformasiya koeffisienti  $\psi$  sifatida ham talqin qilinishi mumkin, bu erda koeffisient muvofiq ravishda halqa qadami bo'ylab va halqa ustuni bo'ylab aniqlanadi:

$$\psi_{III} = \frac{0,0357 \sqrt{\frac{T}{\gamma}} (\sigma - 3\pi)}{A_0} - 1 \quad (19); \quad \psi_c = \frac{0,0357 \sqrt{\frac{T}{\gamma}} (\sigma - 3\pi)}{2B_0} - 1 \quad (20)$$

(19) va (20) koeffisientlari uchun o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblab, halqaning o'rtacha transformasiya koeffisienti  $\psi_{cp}$  uchun quyidagi formula olindi:

$$\psi_{cp} = \frac{0,0357 \sqrt{\frac{T}{\gamma}} (\sigma - 3\pi) \left( \frac{1}{A_0} + \frac{1}{2B_0} \right)}{2} - 1 \quad (21)$$

Kiritilgan halqa transformasiya koeffisienti  $\psi$  halqaning chegaraviy holatida o'zgarish darajasini miqdoriy baholash uchun xizmat qiladi, bu holda halqa qadami va halqa ustuni balandligi eng katta qiymatlarni qabul qiladi. Ushbu koeffisient tuzilmaning siljuvchanligini bilvosita baholashga ham yordam beradi. Masalan, ko'rib chiqilayotgan trikotaj to'qimalar turlari orasida glad trikotaj to'qimasining tuzilishi eng yuqori harakatchanlikka ega ( $\psi_c=1,456$ ), eng past siljuvchanlik esa interlok trikotaj to'qimasi tuzilishida ( $\psi_c=0,61$ ), interlok trikotaj to'qimasining tuzilishi esa eng kam siljuvchapnlik xususiyatiga ega bo'lib, va ko'rib chiqilayotgan trikotaj to'qima turlari orasida eng katta tashqi bog'lanishlar («to'ldirilganlik») majmuasiga ega ekanligi bilan asoslanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi "**Paxta ipidan olingan trikotaj matolarining elastifikasiyalashtirilishi va ularning shakl saqlash xususiyatini baholash**" nomli bobida to'qimachilik materiallari va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning shakl saqlash xususiyatini oshirish usullari va uni baholash mezonlari, yuqori cho'ziluvchan laykra ipidan foydalanib olingan trikotaj matolarining deformatsiyalanishini tahlil etishning modeli usuli, matematik statistika usullar orqali trikotaj matolarining shakl

saqlash xususiyatiga uning elastifikasiyalashishning ta'sirini tadqiq qilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi kunda to'qimachilik matolari va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning shakl saqlash xususiyatini aniqlash uchun yagona umumqabul qilingan standart mavjud emasligi sababli, shakl saqlash xususiyatini baholashning (amaliy va bilvosita) ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Shakl saqlash xususiyatini bilvosita baholash usullari uchun to'qimachilikda fizik-mexanik xususiyatlarini kompleks baholash, materiallarning aniq xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlarni tadqiq qilish va ishlab chiqilayotgan mahsulotning vazifasi va talablarini inobatga olib, boshqaruvchi xususiyatni aniqlash zarurligi aniqlangan.

Shakl saqlash xususiyatini baholashda faqatgina qayishqoq deformatsiyani hisobga olish etarli emasdir, va materiallar hamda ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning shakl saqlash xususiyatini asoslangan baholash uchun elastik deformatsiya ulushini  $\varepsilon_3$  ham inobatga olish kerak, chunki A.I. Koblyakov ma'lumotlariga ko'ra trikotajni tortishdagi qayishqoq deformatsiya ulushi  $\varepsilon_y$  bilan taqqoslanadigan darajada bo'ladi.

Agar to'liq nisbiy deformatsiya munosabatidan  $\varepsilon_{\Pi} = \varepsilon_y + \varepsilon_3 + \varepsilon_{\text{III}}$  kelib chiqib, plastik deformatsiya  $\varepsilon_{\text{III}}$  ni ifodalab, uning teskari qiymatini olsak, shakl saqlash xususiyatining ijobiy ko'rsatkichi kelib chiqadi.

$$K_{\Phi} = \frac{1}{\varepsilon_{\Pi}(1 - K_{y,3})} \quad (22)$$

bu erda  $K_{y,3} = \frac{(\varepsilon_y + \varepsilon_3)}{\varepsilon_{\Pi}}$  – elastik-qayishqoq xususiyatlar koeffisienti, shuningdek, shakl saqlash xususiyatining ijobiy ko'rsatkichi sifatida ham ifodalanadi.

Tarkibida yuqori cho'ziluvchan tola bo'lgan trikotaj matosi uchun Maksvell va Kelvin-Foygtning birlashgan modeliga qayishqoq moduli E ga ega prujina ko'rinishidagi qayishqoq elementni parallel ulash orqali mexanik fenomenologik modeli olingan. Bu element laykra — yuqori cho'ziluvchan toladan iborat ipning trikotajdagi o'zini ideal qayishqoq jism sifatida tutishini modellashtiradi (6-rasm).


Cho'zuvchi kuch va doimiy taranglik  $\sigma$  ta'sirida umumiy (to'liq) deformatsiya uchta tarkibiy qismdan tashkil topadi ( $\varepsilon_y$ ,  $\varepsilon_3$ ,  $\varepsilon_{\text{III}}$ ,  $\varepsilon_0$  – qoldiq deformatsiya).

$$\varepsilon = \frac{\sigma}{E_1} + \frac{\sigma}{E_2} \left(1 - e^{-t/\tau}\right) + \frac{\sigma}{\eta_3} t \quad (23)$$

bu erda t — yuklama vaqti;  $\tau$  — Kelvin-Foygt elementidagi relaksiya vaqti (davriy kuchlanish relaksatsiyasi tezligini belgilaydigan doimiy qiymat). Shuning uchun trikotaj matolarining shakl saqlash xususiyatining ortishiga imkon yaratiladi.

Trikotaj tuzilishida yuqori cho'ziluvchan laykra ipi qo'llanilishi qayishqoq deformatsiya ulushlarining (tez qayta tiklanadigan va sekin qayta tiklanadigan) ortishiga yordam beradi, natijada qoldiq deformatsiya qismining qonuniy ravishda kamayishiga olib keladi.

Trikotaj ishlab chiqarishda poliuretan laykra iplaridan foydalanish yuqori cho‘ziluvchanlik bilan bir qatorda elastiklik kabi muhim fizik-mexanik xususiyatlarga ega trikotaj matolarini olishni ta’minlaydi.



6-rasm. Mexanik fenomenologik relaksasiya va siljishni tavsiflash modeliga muvofiq tarkibida yuqori cho‘ziluvchan laykra ipi mavjud trikotaj matosining to‘liq deformatsiyasini ulushlarining ( $\epsilon'_{\sigma}$ ,  $\epsilon'_{\sigma}$  va  $\epsilon'_{\theta}$ ) sxematik tasviri.

Ushbu ish doirasida olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida, trikotaj matosida poliuretan iplari miqdorining 21-48% gacha ortishi tez qayta tiklanadigan (qayishqoq) deformatsiya  $\epsilon_{\sigma}$  ( $\epsilon_y$ ) oz miqdorda oshishi aniqlandi va boshqa tadqiqotchilar (J.S. Shiganova, V.P. Mishta va b.) tomonidan ham tasdiqlangan.

Shu bilan birga, umumiy deformatsiyaning sekin qayta tiklanadigan (elastik) tarkibiy qismi  $\epsilon_M$  ( $\epsilon_3$ ) sezilarli darajada o‘sadi. Masalan, qoldiq deformatsiya  $\epsilon_{\theta}$  mato uzunligi bo‘yicha 13,6% dan 7,0% gacha kamaygani kuzatilgan, bu esa laykra iplarining massaviy ulushi o‘zgarishiga mos keladi. Demak, trikotaj tuzilishiga yuqori cho‘ziluvchan laykra iplarini kiritish matoning deformatsiyalanishini va shakl saqlash xususiyatini ma’lum darajada boshqarish imkonini beradi.


Tadqiqotda shakl saqlash xususiyatini trikotaj matolarni boshqa to‘qimachilik materiallaridan afzallik tomonlari bilan ajratadigan fizik-mexanik va geometrik xususiyatlar yig‘indisini hisobga oladigan ko‘p mezonli baholashdan foydalanish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tajribani matematik rejalashtirish va statistik ma’lumotlarni qayta ishlash usullari yordamida olingan modellar nochiziqli regressiya tenglamalari bilan tavsiflangan. Ushbu modellar qayta tiklanadigan deformatsiya, cho‘ziluvchanlik va kirishuvchanlik kabi ko‘rsatkichlarning mato tarkibidagi laykra ulushiga bog‘liqligini aks ettiradi, masalan, tukli trikotaj uchun. Shunday qilib, trikotajning bo‘yi va eni bo‘yicha qaytar deformatsiyasi uchun quyidagicha ifodalanadi (7-rasm va 8-rasm).

$$y_{1n} = 66,72 + 7,26x - 0,71 x^2; \quad y_{1m} = 61,79 + 8,86x - 0,93 x^2 \quad (24)$$


Fisher-Snedekor mezoni bo‘yicha statistik baholash regressiya tenglamalarining (24) ahamiyatligini korrelyasiya darajasi 0,97-0,98 bo‘lgani bilan isbotlaydi.

Tajriba tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, laykra miqdori 4,8% gacha bo‘lganda, trikotaj matosining qaytar deformatsiyasi laykrasiz matoga nisbatan bo‘yi va eni bo‘yicha mos ravishda 16,1% va 20% ga oshadi. 6N yuklanishda matoning cho‘ziluvchanligi laykrasiz holatga nisbatan bo‘yiga 2,16 barobar, eniga esa

1,69 barobarga ortadi. Tarkibiga laykra ipi qo‘shilgan trikotaj matolarning kirishuvchanligini nisbiy o‘zgarishi eniga nisbatan bo‘yi bo‘yicha ko‘proq namoyon bo‘ladi.



7-rasm. Trikotajdagi laykra miqdori (%) uning bo'yicha bo'yicha qaytar deformatsiyasiga ta'sir etishning tajriba (1-chiziq) va approksimasiya (2-chiziq) grafiklari



8-rasm. Trikotajdagi laykra miqdori (%) uning eni bo'yicha qaytar deformatsiyasiga ta'sir etishning tajriba (1-chiziq) va approksimasiya (2-chiziq) grafiklari

Tajribani matematik rejalashtirish usuli orqali laykra miqdori, % ( $x_1$ ) va tukli trikotaj rapportidagi glad qatorlari soni ( $x_2$ ) shakl saqlash xususiyati ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi:  $y_1$  – qaytar deformatsiya, %;  $y_2$  – 6N yuklanishda cho‘ziluvchanlik, %;  $y_3$  – kirishuvchanlik, %.

Regressiya tenglamalarining koeffisientlari ahamiyatliligi tekshirilgandan so‘ng, ularning yakuniy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

1) Qaytar deformatsiya: bo‘yiga:

$$y_1 = 83,7 + 5,45 x_1; \text{ eniga: } y_1 = 84,9 + 7,3 x_1$$

2) 6N yuklanishda cho‘ziluvchanlik:

$$y_2 = 39,1 + 6,21 x_1 + 3,1 x_2; \text{ eniga: } y_2 = 51,9 + 3,9 x_1 - 2,9 x_2 + 2,6 x_1 x_2$$

$$y_2 = 51,9 + 3,9 x_1 - 2,9 x_2 + 2,6 x_1 x_2$$

3) Kirishuvchanlik: bo‘yiga:

$$y_3 = 10,2 + 0,77 x_1 + 0,82 x_2 - 0,7 x_1 x_2; \text{ eniga: } y_3 = 6,275 + 0,575 x_1 + 1,3 x_2 + 0,5 x_1 x_2$$

$$y_3 = 6,275 + 0,575 x_1 + 1,3 x_2 + 0,5 x_1 x_2$$

Fisher mezonining hisoblangan

qiymatlarini jadval ko‘rsatkichi bilan

solishtirish natijasida barcha

regressiya tenglamalari (25) adekvat

ekanligi aniqlandi. Bu esa kodlangan

$x_1, x_2$  faktorlar qiymatlaridan tabiiy

qiymatlarga o‘tish orqali


optimallashtirish parametrining

ko‘rib chiqilayotgan faktorlarga bog‘liqligini aniqlash va ushbu tenglamalardan berilgan diapazonda kirish faktorlarining o‘zgarishi uchun parametrni hisoblashda interpolyasion tenglama sifatida foydalanish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shakl saqlash xususiyatini oshirish uchun tukli trikotaj ishlab chiqarishda 2,4% laykra ipidan foydalanish va rapportdagi glad qatorlarini har bir qator oralatib kiritish tavsiya etiladi.


Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi «**Shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan aralash trikotaj to‘qimalar olish usulini ishlab chiqish**» deb nomlanib, aralash to‘qimalarni qo‘llash hisobiga shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘lgan yangi trikotaj assortimentini va olish usullarini ishlab chiqish, hamda ularning texnologik ko‘rsatkichlar va fizik-mexanik xususiyatlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Assortimentni kengaytirish va trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish maqsadida interlok va lastik to‘qimalari asosida tuzilishiga glad va hosilali glad trikotaj to‘qima qatorlari qo‘shilgan aralash trikotajning yangi tuzilishlari va olish usullari ishlab chiqildi. Ushbu usul interlok va lastik to‘qimalarining cho‘ziluvchanligini kamaytirish uchun qo‘llanilgan. Tajribaviy namunalar (8 ta variant) “FLATNIT TEXTILE” MChJ korxonasida LONG XING (Xitoy) 12-klass yassi ignadonli mashinasida ishlab chiqarilgan. Xomashyo sifatida chiziqli zichligi 32 teks  $\times$  2 bo‘lgan poliakrilonitril (PAN) ipidan foydalanilgan. Olingan variantlar tuzilishlari bilan bir-biridan farq qiladi (9-rasm).



9-rasm. Interlok asosida olingan yangi assortimentdagi aralash trikotaj to‘qimalarning grafikli yozuvlari (ishlab chiqarishga tavsiya etilgan variantlari)

Trikotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlari ularning qo‘llanish sohasini belgilaydigan omillar hisoblanadi. Tadqiq etilgan trikotaj namunalari asosan ustki kiyim uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu turdagi mahsulotlarda eng muhim xususiyatlar havo o‘tkazuvchanlik, mustahkamlik va shakl saqlash xususiyati hisoblanadi. Ishlab chiqilgan trikotaj namunalari texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari standart usul bo‘yicha tajriba yo‘li bilan aniqlangan (1-jadval).



10-rasm. Interlok to‘qimasi asosida olingan aralash trikotajning qaytar deformatsiya ulushi


Interlok to‘qimasi asosida aralash trikotaj tuzilishlari texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijasida aniqlandiki, asos namunaga nisbatan xomashyo sarfi (hajmiy zichlik) 13,1-32,8% ga kamaygan.

1-jadval

**Interlok trikotaj to‘qimasi asosida olingan aralash trikotajning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari**

Variantlar	Ko‘rsatkichlar	Trikotajning hajmiy zichligi, $\delta$ mg/sm <sup>3</sup>	Havo o‘tqazuvchanlik V, sm <sup>3</sup> /sm sek	Ishqalanishga chidamlilik, ming. ayl..	Uzilish kuchi R, N		Uzilishdagi cho‘zilishi / 6N dagi cho‘zilishi L, %		Qaytmas deformatsiya $\epsilon_n$ , %		Qaytar deformatsiya $\epsilon_0$ , %		Kirishuvchanlik U, %	
					Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga
0	301,3	85,9	46	728	653	40	98,6/78	16	28	84	72	5	-6	
I	245,5	51,5	42	735	631	36	71/48	8	12	92	88	3	5	
II	272,9	55,3	38	801	713	29	76/44	7,8	10	92,8	90	4	4,5	
III	238	48	36	821	694	26	61/41	6	10	94	90	5	4	
IV	223,7	80	36	718	621	34	96/68	12	12,6	88	86,4	5	6,1	
V	226,1	86	34	681	594	48	89/76	13	13,2	87	85,8	6	7,4	
VI	224	48,3	40	761	701	41	63/57	7,4	11,3	92,6	88,7	4	5,2	
VII	220	61	43	826	744	38	63/46	7	9,6	93	90,4	4,6	5,8	
VIII	212,7	55,3	43	844	726	31	64/53	6	7,9	94	92,1	4	5,3	
GOST		50-90	30dan yuqori	80N				15% gacha				8%	10%	

Rangali kompleks baholash natijalari asosida chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo‘lgan PAN ipidan interlok to‘qimasi asosida olingan aralash trikotaj namunalarning eng maqbul variantlari deb III, VII va VIII lar aniqlandi (11-rasm).



11-rasm. Yangi assortimentdagi lastik asosida olingan aralash trikotaj to‘qimalarning grafikli yozuvlari (ishlab chiqarishga tavsiya etilgan variantlari)

Ushbu variantlar yuqori mustahkamlik xususiyatlariga ega bo'lib, shakl saqlash xususiyati yuqori va xomashyo sarfi kamaytirilgan.

Katta rapportli lastik to'qimasi asosida ishlab chiqilgan aralash trikotaj tuzilishlarini LONG XING rusumidagi 12-sinf yassi ignadonli trikotaj mashinasida olishda chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan poliakrilonitril ipidan foydalanildi.

Tadqiqot etilayotgan katta rapportli lastik asosida olingan aralash trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari tajribaviy usullarda aniqlangan va 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Lastik asosida olingan aralash trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari

Variantlar	Ko'rsatkichlar	Hajmiy zichlik, mg/sm <sup>3</sup>	Havo o'tkazuvchanlik V, sm <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> sek	Ishqalanishga chidamlilik, ming ayl.	Uzilish kuchi R, N		Uzilishdagi cho'zilishi / 6 N dagi cho'zilishi L, %		Qaytmas deformatsiya ε <sub>n</sub> , %		Qaytar deformatsiya ε <sub>0</sub> , %		Kirishuvchanlik U, %	
					Bo'yiga	Eniga	Bo'yiga	Eniga	Bo'yiga	Eniga	Bo'yiga	Eniga	Bo'yiga	Eniga
0	241,1	104,6	35	542	498	116	124/82	20	30	80	70	6	-8	
I	195,85	66,15	40	459	371	63	129/49	8	15	92	85	2	4	
II	194,8	57,9	42	701	568	53	112/39	9	14	91	86	2	2	
III	197,1	104,6	40	706	396	83	121/48	7	14	93	86	2	3	
IV	195,6	96,7	43	629	491	41	101/39	6	13	94	87	3	3	
V	232,3	100,8	39	603	481	56	68/31	12	14	88	86	3	4	
VI	192,2	112,4	41	693	399	63	121/46	13	14	87	86	3	4	
VII	193,7	112,3	44	460	350	89	136/41	10	14	90	86	3	4	
VIII	200,8	91,4	45	621	403	68	131/44	12	13	88	87	3	4	
GOST		100 gacha	30 dan ortiq	80N				15% gacha				8 % gacha	10% gacha	

Tuzilishini o'zgartirish hisobiga, rapporti kattalashtirilgan lastik qatorlari va bir qavatli trikotaj qatorlari (glad, to'liq bo'lmagan glad) qo'llanilishi natijasida "Knitted Spacer fabrics" guruhidagi to'qimalarga o'xshash karkas effektiga erishildi, bu esa ishlab chiqilgan namunalarning qalinligini oshishiga olib keldi, hajmiy zichlik esa 16,7-20,3% ga kamaydi.

Katta rapportli lastik asosida olingan yangi assortimentdagi aralash matolarning fizik-mexanik xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatdiki trikotaj tuzilishiga cho'ziluvchanligi past bo'lgan glad va to'liq bo'lmagan glad qatorlarini kiritilishi qaytar deformatsiya ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshiradi. Bo'yi bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi asos namuna bilan taqqoslaganda 8,75-17,5% ga, eni bo'yicha esa 21,4-24,3% ga oshgan.

Chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan PAN ipidan olingan lastik trikotaj to'qima asosida aralash tuzilishli matolarning sifat ko'rsatkichlarini rangali kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, II, IV va VIII variantlar eng rasional tuzilishga egadir. Ushbu variantlar yuqori mustahkamlik xususiyatlariga ega bo'lib, shuningdek shakl saqlash xususiyati yuqori va xomashyo sarfi kamdir.

Beshinchi «Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarning shakl saqlash xususiyatini oshirish usulini ishlab chiqish» mavzusidagi bobda ikki qatlamli va ikki qatlamli arqoqli trikotaj to'qimalarni shakl saqlash xususiyatini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Asos namuna sifatida ikkalla qatlamli ham glad trikotaj to'qimasidan ishlab chiqarilgan ikki qatlamli trikotaj olingan (variant-0). Namuna LongXing rusumidagi yassi-ignadonli mashinada ishlab chiqarilgan bo'lib, xomashyo sifatida yangi ishlab chiqilgan namunalarni olishda foydalanilgan kabi, chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan poliakrilonitril (PAN), biriktiruvchi ip sifatida esa chiziqli zichligi 18 teks bo'lgan teksturlangan ip (laykra + poliester) qo'llanildi.

Ikki qatlamli trikotajning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari tajriba usullari yordamida aniqlandi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Ikki qatlamli trikotajning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari

Variantlar	0	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	GOST	
Hajmiy zichlik, mg/sm <sup>3</sup>	214,5	159,6	179,3	164,8	165,6	207,75	174,12	203,4	204,7		
Havo o'tkazuvchanlik V, sm <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> sek	55,4	14,71	17,43	17,43	26,62	28,12	30,92	38,44	35,33	50 gach	
Issiqlik saqlash xususiyati, %	24	54	56	54	52	48	44	40	42		
Ishqalanishga chidamlilik, tis. obor.	46,6	60	62	57	54	55	53	52	54	30 dan ortiq	
Uzilish kuchi R, N	bo'yiga	788,6	799,5	870,5	678	663,5	705	778,5	788,5	882	80N
	eniga	404,2	677,5	709,5	630	529,5	529,5	615,5	643	644,5	
Uzilishdagi cho'zilish L, %	bo'yiga	104,2	58	39	165	68	71	74	63	65	
	eniga	271,4	49	56	128	81	74	79	86	79	
6N dagi cho'zilishi, %	48	11,1	9,6	10,3	14,3	14,1	12,1	18,1	21,1		
Qaytmas deformatsiya ε <sub>n</sub> %	bo'yiga	8,5	3	2	4	6	4	2	2	3	15%
	eniga	9,8	4	2	4	8	6	3	2	6	gacha
Qaytar deformatsiya ε <sub>o</sub> , %	bo'yiga	91,5	97	98	96	94	96	98	98	97	
	eniga	90,2	96	98	96	92	94	97	98	94	
Kirishuvchanlik U, %	bo'yiga	8,5	3	2	3	2	3	4	2	2	8 gacha
	eniga	3	2	2	3	4	3	2	2	3	10 %
Pillinglanish, dona/10sm <sup>2</sup>	2	0	0	1	0	0	1	1	1	3 %	

Ishlab chiqilgan ikki qatlamli trikotaj namunalarning nisbiy yengilligi 5-25,6% ni tashkil etadi, ya'ni ularni ishlab chiqarish xom ashyo sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan ikki qatlamli trikotaj namunalari issiqlik saqlash xususiyati yuqori bo'lgan ustki kiyim mahsulotlari uchun mo'ljallanganligi sababli, ularning issiqlik saqlash qobiliyatini aniqlash bo'yicha sinovlar o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, trikotaj tuzilishini o'zgartirish hisobiga tajriba namunalarning issiqlikni saqlash

ko'rsatkichi asos namuna natijalariga qaraganda sezilarli darajada ortgani ma'lum bo'ldi. Eng kam issiqlik saqlash ko'rsatkichi VII variantda bo'lib, 40% ni tashkil etdi, bu asos tshimasiga nisbatan 16,7% ga ko'p.

Ishlab chiqilgan ikki qatlamli trikotaj namunalarining 6 N dagi cho'zilish ko'rsatkichlari asos variantga nisbatan kam bo'lib, ular I cho'zilish guruhiga (0-40%) kiradi. Ikki qatlamli trikotajning eng kam cho'zilish ko'rsatkichi II variantda bo'lib, 9,6% ni tashkil etadi, ya'ni asos namunaning cho'zilishidan 5 barobar kam. Eng yuqori cho'zilish VIII variantda bo'lib, 21,1% ni tashkil etadi, bu asos namunaning cho'zilishidan 2,27 barobar kam.


«GOST 30385-95. Ustki trikotaj mahsulotlarga mo'ljallangan trikotaj matolari. Pillingga chidamlilik me'yorlari»ga ko'ra, matoning 10 sm<sup>2</sup> yuzasiga pillar 1-3 tadan ortiq bo'lmasligi kerak. Ikki qatlamli trikotaj namunalarining pillingga bardoshlilikini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, asos namuna ham, ishlab chiqilgan namunalar ham standart talablariga mos keladi, shuningdek, I, II, IV, V variantlar yuzasida sinovlardan keyin pillar shakllanmagan.

Ikki qatlamli trikotaj namunalarining bo'yi bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi 94% dan 98% gacha o'zgardi. Shu bilan birga, eni bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi 92% dan 98% gacha o'zgardi.

Chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan PAN ipidan ishlab chiqarilgan ikki qatlamli trikotajning sifat ko'rsatkichlarining rangali kompleks baholash natijasida eng rasional deb I, II va III variantlar aniqlandi. Ushbu variantlar yuqori mustahkamlik ko'rsatkichlariga, shakl saqlash xususiyatiga va kam xomashyo sarfiga ega.

Trikotaj tuzilishiga arqoq ipini qo'shish shakl saqlash xususiyatini oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda arqoq ipini asos to'qimada mustahkamlanishi va trikotaj tuzilishida qo'shimcha ipni qo'shish orqali xomashyo sarfini ortishi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Ikki qatlamli arqoqli trikotajning yangi tuzilishlarini ishlab chiqish maqsadida, LONG XING rusumidagi yassi ignadonli mashinada 3 ta tajribaviy variant ishlab chiqarilgan (11-rasm), ular arqoq ipini o'tkazish va asos to'qimada mustahkamlash usuli bilan farq qiladi. Asos va arqoq iplari sifatida chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan poliakrilonitril (PAN) ipidan foydalanildi. Biriktiruvchi ip sifatida chiziqli 18 teks (laykra ipi 70 den'e va p/e ipi 100 den'e) bo'lgan teksturlangan laykra ipdan foydalanildi.



12-rasm. Ikki qatlamli arqoqli trikotajning grafikli yozuvi

Ishlab chiqilgan ikki qatlamli arqoqli trikotaj namunalarning texnologik ko'rsatkichlari natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan namunalarda xomashyo sarfi ko'rsatkichini kamaytirishga erishilgan. Trikotaj tuzilishiga qo'shimcha arqoq ipini qo'shishga qaramay, qatlamlar tuzilini o'zgartirish orqali asos namuna bilan solishtirganda xomashyo sarfi 8,28-14,47% ga kamaydi.

Ikki qatlamli arqoqli trikotajning issiqlikni saqlash ko'rsatkichi asos namunadan 2 barobar yuqori. I-variantning issiqlik saqlash ko'rsatkichi asos namunadan 79% ga, II va III variantlarniki esa 70,8% ga yuqori.

Ikki qatlamli arqoqli trikotajning I va III variantlarida ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi «Mustahkam» guruhiga mos keladi, II variantniki esa «Oddiy» guruhga muvofiqdir (GOST 16486-93).

Ishlab chiqilgan ikki qatlamli arqoqli trikotajning 6 N dagi cho'zilish ko'rsatkichlari asos variantga nisbatan kamroq bo'lganligi va ular cho'ziluvchanligi bo'yicha I guruhiga (0-40%) kirishi aniqlandi.

Ikki qatlamli trikotajning bo'yi bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi 92,5% dan 94,6% gacha o'zgardi. Shu bilan birga, eni bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi 90,4% dan 92,3% gacha o'zgardi.

Ustki trikotaj mahsulotlari uchun kirishuvchanlik talablari asosida ishlab chiqilgan ikki qatlamli arqoqli trikotaj namunalari nam-issiq ishlov berishda yuqori shakl saqlash xususiyatiga egaligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari tahlili bo'yicha asos va ishlab chiqilgan namunalarning pillinga bardoshlilik ko'rsatkichlari standart talablariga mos kelishi ma'lum bo'ldi.

Chiziqli zichligi 32 teks x 2 bo'lgan PAN ipidan ishlab chiqarilgan, ikki qatlamli arqoqli trikotajning sifat ko'rsatkichlarini rang tahlili natijasida eng yaxshi variantlar I va II ekanligini aniqlangan. Ushbu variantlarda mustahkamlik, shakl saqlash hususiyatlari yuqori va xomashyo sarfi kam, shuningdek, chiroyli tashqi ko'rinishga ega.

Dissertatsiyadagi oltinchi bobi "**Trikotajning shakl saqlash xususiyatini uning tuzilishiga qo'shimcha iplarni qo'shish orqali oshirish**" deb nomlangan bo'lib, u shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan arqoqli, futerli va arqoqli-futerli trikotaj to'qima tuzilishlarini va ishlab chiqarish usullariga bag'ishlangan. Aralash usullarni qo'llash orqali trikotaj matolarining shakl saqlash xususiyatini oshirish, turli to'qima tuzilishlarining afzalliklarini bir mato ichida samarali birlashtirish imkonini beradi.


Ustki trikotaj mahsulotlariga mo'ljallangan shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan va naqsh samarasiga ega bo'lgan trikotaj matolari assortimentini kengaytirish maqsadida arqoqli, futerli va arqoqli-futerli to'qima tuzilishlari va olish usullari ishlab chiqildi.

To'qima tuzilishida qo'shimcha ip mustahkam mahkamlangan naqshli arqoqli trikotajni olishning samarali usuli ishlab chiqilgan. Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan arqoq ipi futerli usulda mahkamlangan trikotaj to'qimasi lastik 1+1 asosida olinib, unda arqoq ipidan har oltinchi ustunchada futerli igna yoyi shakllantirilgan (13,a-rasm). Tavsiya etilayotgan trikotaj asos ipidan *a* tashkil topgan asos halqalaridan *I* va arqoq ipi *b* dan iborat bo'lib, u lastik 1+1 to'qimasi old va teskari halqa ustunlari orasida halqa qatori bo'ylab joylashgan. Lastik trikotaj tuzilishiga arqoq ipi kiritilishi

va asosda mustahkam mahkamlanishi natijasida trikotajning eni bo'yicha cho'ziluvchanligi kamayadi va uning shakl saqlash xususiyati ortadi.

Trikotaj tuzilishiga arqoq ipini kiritilishi trikotajning mustahkamligini oshiradi, matodagi iplarni tortilib yig'ilib qolish ehtimolini kamaytiradi, cho'zilish va sitilishni kamaytiradi, shuningdek, trikotajning issiqlik saqlash xususiyatini boshqarish imkonini beradi. Mashinaning texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, xomashyo sarfiga ta'sir etmasdan arqoq ipining lastik trikotaj to'qimasi tuzilishida mustahkamlash darajasini oshirish maqsadida, halqa qatori bo'yilab qo'yilgan arqoq ipidan uchta halqa ustunchasida halqa hosil qilish taklif etilgan.

Shuningdek, 13, b - rasmda ko'rsatganidek, taklif etilgan trikotaj asos ipi *a* dan hosil bo'lgan asos halqalari 1, lastik 1+1 ning old va teskari halqalari orasida joylashtirilgan arqoq ipi *b* dan tashkil topgan. Arqoq ipidan ba'zi ignalarda halqa hosil qilinishi hisobiga trikotaj tuzilishida arqoq ipini mustahkam mahkamlanishini ta'minlanadi.



13-rasm. Yangi arqoqli, futerli va arqoqli-futerli aralash trikotaj to'qima tuzilishlari

Yangi tuzilishdagi futerli trikotajni ishlab chiqish usulida futer ipini halqa qatori bo'yicha joylashtirib, undan har uchinchi halqa ustuncha oralatib halqa hosil qilinadi, natijada futer ipidan hosil bo'lgan halqalar orasida joylashgan glad halqalarida futer yarim halqalari hosil qilinadi. 13, v-rasmdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan trikotaj futer ipi *b* dan halqa 1 va asos ipi *a* dan halqalar 2 dan tashkil topgan. Futer ipi *b* dan xar oltinchi ustunchada halqa shakllantirilib, futer ipidan hosil bo'lgan halqalar orasida joylashgan glad halqalarida bitta oralatib futer yarim halqalar hosil qilingan. Natijada, halqa qatori bo'yicha joylashtirilgan futer ipining B-B<sub>1</sub> qismi trikotajning eni bo'yicha cho'zilishini kamaytirsa, futer ipidan hosil bo'lgan halqa va futer yarim halqalarni birlashtirib turgan B-Γ va B<sub>1</sub>-Γ<sub>1</sub> qismlari esa trikotajning bo'yi bo'yicha chuzilishini oldini oladi. Futer ipidan ba'zi ignalarda halqa hosil qilinishi hisobiga futer ipining asos to'qimada mustahkam mahkamlanishi ta'minlanadi.

Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan asos to'qimada futer va arqoqli iplari mustahkam mahkamlangan trikotajni olish usuli (13, g-rasm) glad tuzilishida futer

ipidan har oltinchi ustunchada chap va o'ngga bitta halqa qadami siljishi bilan halqa hosil qilish hisobiga mustahkamlangan. Ko'ndalang qo'yilgan arqoq iplarini trikotaj to'qimasida asos halqa tayoqchalari, futer ipidan hosil bo'lgan halqa tayoqchalari va protyajkalari orasida mahkamlanadi. Ishlab chiqilgan trikotaj futer ipi  $\sigma_1$  dan hosil bo'lgan halqalar 1, hamda asos ipi  $a$  dan hosil bo'lgan asos halqalari 2 dan tashkil topgan. Xar oltinchi ustunchada futer ipi  $\sigma_1$  dan chap va o'ng tomonga siljish bilan halqa 1 xosil qilinadi. Arqoq ipi  $\sigma_2$  halqa qatori bo'ylab joylashgan bo'lib, asos halqa tayoqchalari va futer ipi  $\sigma_1$  dan hosil bo'lgan protyajkalar orasida mahkamlangan. Bu trikotajda eni bo'yicha cho'zilishi arqoq ipi hisobiga, bo'yi bo'yicha cho'zilishi esa futer ipidan hosil bo'lgan halqa va futer yarim halqalari orasidagi qismi 3 hisobiga kamaytirildi.

Trikotajning eni va bo'yi bo'yicha cho'ziluvchanligini kamaytirish va trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish maqsadida ikki qavatli ko'ndalang to'qilgan aralash tuzilishli futerli-arqoqli trikotajni olish texnologiyasi ishlab chiqildi (13, d-rasm). Trikotaj lastik to'qimasi asosida ishlab chiqarilib, uning asosi  $\Gamma$  ipidan hosil qilinadi. Trikotajning old va teskari tomoni yo'lar  $\Pi p$  bilan birlashtiriladi. Birinchi qatorda qo'yilgan futer ipi  $\Phi$  dan old tomoniga qo'yilgan yarim halqa  $H_1$  va teskari tomoniga qo'yilgan yarim halqa  $H_2$  lastik to'qimasi protyajkalar  $\Pi p$  bilan mahkamlanadi. Arqoq ipi  $Y$  halqa qatori bo'ylab joylashtirilgan bo'lib, lastik halqalari va futerli protyajkalar orasida mahkamlangan. Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni ishlab chiqarish hisobiga ikki ignadonli mashinaning texnologik imkoniyatlari kengayadi. Trikotaj tuzilishiga arqoq va futer iplarini kiritilishi hisobiga to'qima yuzasida rangli ko'zcha shaklidagi naqsh samarasini hosil qiladi.

Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni yangi taklif etilayotgan texnologiyalar asosida olish hisobiga 1 tonna xomashyoni qayta ishlashdan olinadigan iqtisodiy samara: interlok asosida olingan aralash trikotaj uchun – 22,3 million so'm; lastik to'qimasi asosida olingan aralash trikotaj uchun 14,6 million so'm; ikki qatlamli trikotaj uchun 19,3 million so'm; ikki qatlamli arqoqli trikotaj uchun 11,0 million so'mni tashkil etadi.

## XULOSA

«Shakl saqlash xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotaj olish texnologiyasi asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagilardan iborat:

1. Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotajni ishlab chiqarish usullariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida trikotajning tuzilish elementlari va xususiyatlari o'zaro bog'liqlikni qonuniyatlarini aniqlash eng dolzarb masala bo'lib qolishi, hamda trikotajning shakl saqlash xususiyatini oshirish bo'yicha ishonchli natijalarga erishish uchun esa trikotajning deformatsiyalanishini halqa tuzilish elementlari va parametrlari o'zgarishini tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan echim ishlab chiqish zaruriyati aniqlangan.

2. Ilk bor halqadagi texnologik ip uzunligi (HITU) parametri taklif qilindi, uning hisoblash algoritmi uzunlik koeffisienti orqali asoslanib ishlab chiqildi. Bu koeffisient trikotaj namunalarning cho'zilishdagi qaytmas (plastik) deformatsiyalar ulushini

ifodalaydi. Halqa ipi texnologik uzunligi (HITU) ko'rsatkichidan foydalanish halqaning shakl saqlash xususiyatini va, muvofiq ravishda, trikotaj matosining shakl saqlash xususiyatini sezilarli darajada oshiradi.

3. Pishiqlik ishonchligini modellashtirish va halqa tuzilishining chegaraviy holatidagi transformasiyasi asosida trikotajning halqa qadami va halqa ustuni bo'ylab transformasiya koeffisientlari hamda ipning uzilishdagi uzunligi bo'yicha bog'liqliklar aniqlangan va halqa tuzilishi harakatchanligini bilvosita baholash uchun halqa transformasiyasi o'rtacha koeffisienti ( $\psi_{cp}$ ) joriy etilgan.

4. Tarkibida yuqori cho'ziluvchan laykra ipli trikotaj matolar uchun relaksasiya va siljuvchanlik jarayonlariga ta'rif berish maqsadida Maksvell va Kelvin-Foygt birlashgan modeliga asoslangan mexanik fenomenologik model taklif etilgan.

5. Laykra miqdori va trikotaj tuzilishidan kelib chiqib, shakl saqlash xususiyatining chiziqsiz regressiya bog'liqliklari aniqlangan. Tukli trikotajni ishlab chiqarishda 2,4% laykra ipidan foydalanish shakl saqlash xususiyatini oshirishga, rapportiga esa bir qator oralatib glad qatorlarini kiritish hisobiga xomashyo sarfini kamaytirishga erishilgan.

6. Yangi turdagi aralash trikotaj to'qimalarining parametrlari va xususiyatlarini tahlil qilish natijasida interlok to'qimasiga kam cho'ziluvchan elementlarning, jumladan, glad va to'liq bo'lmagan glad qatorlari kiritilishi bo'yi bo'yicha 8,75–17,5%, eni bo'yicha esa 21,4–24,3% qaytariluvchan deformatsiya ulushini oshirishi asoslangan. Lastik to'qimasi asosida ishlab chiqilgan yangi aralash trikotaj namunalarida shakl saqlash xususiyati bo'yi bo'yicha 8,75–17,5% ga, eni bo'yicha esa 21,4–24,3% ga oshishiga erishilgan.

7. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan ikki qatlamli trikotaj tuzilishlari hisobiga matoning shakl saqlash xususiyati bazaviy namunaga nisbatan bo'yi bo'yicha 2,7–7,1% ga, eni bo'yicha esa 1,9–8,6% ga oshgan va qaytar deformatsiya ulushi 98% bo'lishiga, ikki qatlamli trikotajning issiqlik saqlash xususiyatlari bazaviy namunaga nisbatan 66,7% ga, ikki qatlamli arqoqli trikotajda esa 79% ga oshishiga erishilgan.

8. Ikki qatlamli trikotajning qatlamlarini birlashtirish usullari va press to'qimasi, glad hamda to'liq bo'lmagan gladining turli rapportlarini qo'llab ishlab chiqarish, shuningdek, ikki qatlamli trikotaj tuzilishiga arqoq ipini mustahkam mahkamlash orqali xomashyo sarfini oshirmasdan yuqori issiqlik saqlash xususiyatlariga ega bo'lgan trikotaj tuzilishlari ishlab chiqilgan.

9. Arqoqli, futerli va arqoqli-futerli trikotaj to'qimalar asosida shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan yangi assortiment tuzilishlarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

10. Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan yangi tuzilishli interlok to'qimasi asosida aralash trikotajni ishlab chiqarishda 1 tonna qayta ishlangan xom ashyo hisobidan iqtisodiy samaradorlik 22,3 mln. so'mni, lastik to'qimasi asosidagi aralash trikotaj uchun 14,6 mln. so'mni, ikki qatlamli trikotaj uchun 19,3 mln. so'mni, ikki qatlamli arqoqli trikotaj uchun esa 11,0 mln. so'mni tashkil qiladi (2025 yil narxlarida).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ГУЛЯЕВА ГУЛЬФИЯ ХАРИСОВНА**

**ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ ВЫРАБОТКИ ФОРМОУСТОЙЧИВОГО  
ТРИКОТАЖА**

**05.06.02 - Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ (DSc) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора технических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.2.DSc/T633**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:** **Мукимов Мирабзал Мираюбович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Матисмаилов Сайпилла Лалашбаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Валиев Гулам Набиджонович**  
доктор технических наук, профессор

**Битус Евгений Иванович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Наманганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «03» июля 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета **DSc.03/30.12.2019.T.08.01** при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5. Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел. (+99871)-253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz).

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за № 243). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, тел.: (+99871)- 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «18» июня 2025 года.  
(реестр протокола рассылки №243 от «18» июня 2025г.)



**Х.Х.Камилова**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор



**А.З.Маматов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**

Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В 2024 году мировой рынок текстиля оценивается в 748 миллиардов долларов США, а к 2029 году его объем, по прогнозам, достигнет 889,24 миллиарда долларов США, демонстрируя среднегодовой темп роста в 3,52% за прогнозируемый период (2024–2029 годы). Текстильная промышленность остается динамично развивающимся сектором, основными конкурентами которого являются Китай, Европейский Союз, США и Индия. Активная индустриализация и внедрение передовых технологий способствуют модернизации предприятий, что позволяет выпускать продукцию с высокой эффективностью<sup>1</sup>. В этом контексте разработка наукоёмкой технологии производства трикотажных изделий с повышенной формоустойчивостью путем совершенствования структуры переплетений и эффективного использования натурального и синтетического сырья, является важной задачей.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на снижение материалоемкости, расширение ассортимента трикотажных полотен, совершенствование технологии трикотажного производства, разработке моделей прогнозирования свойств и технологических процессов, а также интеграции полученных результатов в производство. В связи с этим важно создание новых эффективных способов повышения и прогнозирования формоустойчивости трикотажа для верхних изделий. При этом актуальными считаются вопросы создания теоретических и технологических основ разработки трикотажных полотен с высокой формоустойчивостью на основе анализа деформации трикотажа.

В нашей республике придается особое значение внедрению передовых технологий и укреплению позиций текстильной продукции на мировом рынке. В этой сфере достигнуты заметные результаты по освоению производства трикотажных изделий высокотехнологичными способами. Это подтверждает большой потенциал промышленности и острую недостаточность эффективных технологий для производства трикотажной продукции, отвечающей требованиям международных стандартов. На сегодняшний день в данной отрасли экономики страны ставятся такие приоритетные задачи, как «... дальнейшее повышение экспортного потенциала республики и доведение объемов экспорта республики в 2026 году до 30 миллиардов долларов США<sup>2</sup>. Увеличение доли готовой продукции и полуфабрикатов в структуре экспорта в 3,3 раза, расширение экспорта готовой продукции в страны Европы в рамках GSP+ и других систем», «... доведение уровня переработки пряжи в текстильной промышленности до 100 процентов, налаживание производства 400 тысяч тонн искусственного и смешанного волокна для удовлетворения спроса на

---

<sup>1</sup> <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/global-textile-industry---growth-trends-and-forecast-2019---2024>

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

высококачественное полотно...»<sup>3</sup>. Для достижения указанных целей особую актуальность приобретают задачи эффективного использования местного сырья для производства импортозамещающих и экспортоориентированных трикотажных изделий, отвечающих высоким требованиям качества и конкурентоспособности. Важным направлением является также разработка трикотажных полотен с улучшенными характеристиками качества на основе научно обоснованной теории устойчивости петельной структуры трикотажа при эксплуатационных нагрузках.

Данное диссертационное исследование вносит вклад в реализацию задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии «Узбекистан 2030», №УП-155 от 02 сентября 2023 года «О дополнительных мерах по финансовой поддержке текстильной промышленности», №УП-71 от 01 мая 2024 года «О мерах по выведению на новый этап развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности», а также другими нормативно-правовыми актами, принятыми в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий: П.«Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации**<sup>4</sup>. Ведущие исследовательские центры и университеты мира, включая Международный аналитический центр Mordor Intelligence, Textiles and Clothing Research Centre (Индия), Massachusetts Institute of Technology (MIT), США), Technical University of Munich (TUM), Германия), Ghent University (Бельгия), University of Manchester (Великобритания), Научно-исследовательский институт текстильной и легкой промышленности (НИИ ТилП Алмата), РУП «Центр научных исследований легкой промышленности» (Беларусь), ОАО «Инновационный научно-производственный центр текстильной и легкой промышленности» (Россия), Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности (Узбекистан), проводят обширные научные исследования в области совершенствования техники и технологий трикотажного производства.

В мире в результате исследований, проведенных в научных центрах и посвященных совершенствованию техники и технологии, повышению эффективности и улучшению качества трикотажных изделий достигнуто следующее: разработаны новые эффективные способы получения новых

---

<sup>3</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии «Узбекистан 2030»

<sup>4</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации разработан на основе: [www.icac.org](http://www.icac.org), <https://www.mit.edu/>; <http://www.cotton.org>; <https://www.tum.de/en/>; [www.indiantextilejournal.com](http://www.indiantextilejournal.com); [Journal of Textile Science & Engineering. https://atu.edu.kz/science/research-institutes/light-industry](http://www.journaloftextile.com); <https://inpctlp.ru/>; <https://www.ugent.be/en> и других источников

структур трикотажа из натурального и смешанного видов сырья (Textiles and Clothing Research Centre, Индия); разработаны новые технологии получения, художественного оформления и конструирования трикотажных изделий технического и компрессионного назначения (Санкт-Петербургский государственный университет технологии и дизайна, Россия), разработаны и автоматизированы технологические процессы новых способов производства трикотажных изделий (Hochschule Albstadt universiteti, Германия), разработаны новые технологии получения высокоэластичных трикотажных изделий бельевого и верхнего ассортимента (Московский государственный текстиль университет, Россия), разработаны технологические регламенты выработки двухслойного, плюшевого, комбинированного и хлопко-шелкового трикотажа с особыми свойствами (Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Узбекистан).

Перспективными являются исследования, проводимые в различных странах мира по управлению технологическими параметрами и физико-механическими свойствами трикотажа в зависимости от заправочных данных и строения, по повышению эффективности производства трикотажа новых структур за счет внедрения научно обоснованных технологий, которые в итоге позволяют значительно улучшить качество продукции без увеличения затрат на ее производство.

**Степень изученности проблемы.** Вопросы усовершенствования технологии выработки трикотажных изделий, исследования структур, гигиенических и деформационных свойств трикотажных полотен и изделий рассмотрены в научно-исследовательских работах таких зарубежных ученых как V. Kumar, V.R. Sampath, N.Emirhanova, Y.Kavusturan, E.Onofrei, S.A.Frydrych, H.R. Mattila, D. Farama, Bartkowiak Grazyna, Szucht Edwart, C. Candan, A. Mukhopadhyay и др.

В этой области науки известны фундаментальные работы по получению формоустойчивых полотен, расширению ассортимента трикотажных изделий и исследованию технологических параметров и физико-механических свойств трикотажа проф. А.С. Далидовича, И.И. Шалова, Л.А. Кудрявина, В.М. Лазаренко, В.А. Зиновьевой, Л.П. Ровинской, И.Г. Цитовича, А.В. Труевцева, М.М. Мукимова, Н.Р. Ханхаджаевой, К.М. Холикова, Б.Ф. Мирусманова, К.З. Юнусова, А.Э.Исабаева, Ш.Мухамеджанова и др.

Вопросы создания трикотажных изделий с высокими гигиеническими свойствами, исследования деформационных свойств трикотажных полотен и изделий рассмотрены в научно-исследовательских работах таких ученых, как проф. Х.А. Алимова, Ф.У. Нигматова, С.Ш. Ташпулатов, В.С. Рыбина, Д.У. Арипжанова, А.П. Рогова, А.И. Табакова.

Анализ научно-исследовательских работ, посвященных способам производства трикотажных полотен с улучшенными свойствами и высокой формоустойчивостью показывает, что создание теоретических и технологических основ выработки формоустойчивых трикотажных полотен как из натуральных, так и синтетических видов пряжи путем совершенствования

структуры и анализа деформируемости трикотажа на основе трансформации элементов и параметров петельной структуры является актуальной задачей, имеющей научно-практическое значение.

**Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-исследовательских работ ТИТЛП и отражено в следующих научно-исследовательских проектах: «Разработка новых переплетений для трикотажной продукции кластера» (2019г.) «Анализ, подбор и обоснование парка трикотажного оборудования для текстильного комплекса ООО «Vuxara Mega Global Tekс» (2021г.), «Выработка трикотажных полотен. Анализ технологических параметров полученных образцов» (2022г.).

**Цель исследования** заключается в разработке теоретических и технологических основ выработки формоустойчивых трикотажных полотен путем анализа деформируемости трикотажа на базе трансформации элементов и параметров петельной структуры.

**Задачи исследования:**

разработка концепции модели устойчивости трикотажа при эксплуатационных нагрузках на основе анализа деформируемости параметров петельной структуры;

моделирование прочностной надежности и трансформации трикотажной петли при предельном состоянии петельной структуры;

создание научных основ эластификации хлопчатобумажных трикотажных полотен и оценки их формоустойчивости на основе модельного метода анализа деформируемости;

разработка способа повышения формоустойчивости трикотажа комбинированного переплетения на основе включения в структуру элементов малой растяжимости;

разработка новых структур и способов выработки двухслойного и уточного трикотажа, обладающих повышенной формоустойчивостью на основе совершенствования структуры слоёв и прокладывания соединительной и уточной нитей;

разработка технологичных способов повышения формоустойчивости трикотажа за счет включения в структуру дополнительных нитей.

**Объектом исследования** являются процессы и методы повышения формоустойчивости трикотажа, включая анализ деформируемости и трансформации петли при эксплуатации.

**Предметом исследования** являются структура трикотажных полотен комбинированного, двухслойного, футерованного и уточного переплетений, параметры их деформации, эластичности, прочностной надежности и формоустойчивости при воздействии эксплуатационных нагрузок.

**Методы исследований.** В научно-исследовательской работе применялись теоретические, экспериментальные методы, комплексная оценка, обработки и

анализа результатов эксперимента, математические статистические методы, программы *Maple, Math Cad, Excel, Auto Cad, Corel Draw*.

**Научная новизна исследования** заключается в следующем:

впервые в теории вязания разработан показатель и алгоритм расчета технологической длины нити в петле  $l_t$ , учитывающий пластическую деформацию нити через коэффициент длины петли  $k_l$  и приводящей петельную структуру в длительное равновесное состояние;

на основе анализа треугольника возможных состояний строения трикотажа получена формула для определения коэффициента формоустойчивости полотна через параметры петли, отражающие необратимую деформацию;

разработаны научные основы повышения эластичности хлопчатобумажных полотен и оценки их формоустойчивости на базе анализа деформируемости трикотажа;

разработана технология повышения формоустойчивости за счёт создания новых видов комбинированного трикотажа путём введения дополнительных элементов в структуру ластичного и интерлочного переплетений;

